

LOYIHA METODI VA UNING AFZALLIKLARI XUSUSIDA

Nishonov P.P

O'zDJTU dotsenti

Zamonaviy ta'limda kishilarning uzluksiz ravishda o'z bilimlarini oshirib borishga, bilimlarni egallash va ularni tarqatishning yangi usul va vositalaridan samarali foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Loyiha metodi hozirgi davrda barcha bilim sohalarida, jumladan chet tillarni o'qitish sohasida qo'llanib kelinayotgan yangi pedagogik texnologiyalardan sanaladi. Loyiha metodi deganda, muayyan g'oyalar majmui, har tomonlama puxta ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya, pedagogik amaliyot tushuniladi.

Loyiha metodi XX asrning 20-yillarida amerikalik pedagog U.X. Kilpatrik tomonidan instrumentalizm konsepsiyasini amalga oshirish vositasi sifatida ishlab chiqilgan. Y.M. Borisova fikricha, loyiha – bu biror masala yoki muammoning yechimini topishga qaratilgan, uni oldindan tayyorlangan reja asosida samarali usulda yechishga qaratilgan ishdir [2, 30]. Zamonaviy ta'limda loyihaviy metodning keng jalb qilinishi kuzatilmoqda. Loyiha metodini ta'limning barcha bosqichlarida va barcha fanlar doirasida samarali qo'llash mumkin. Chet tili ta'limida loyiha – bu o'qituvchi tomonidan muayyan mavzu doirasida maxsus tayyorlangan, o'quvchilar tomonidan mustaqil bajariladigan, ijodiy mahsulot yaratilishi bilan tugallanadigan faoliyatlar majmuidir.

Chet tili ta'limida loyiha metodidan qanday foydalanish mumkin? Biz bilamizki, chet tili ta'limida hozirgi davrda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv asosiy o'rinni egallaydi. Chet tili ta'limi markazida til o'rganuvchi bo'lib, uning tilni egallash faoliyati kundalik hayot bilan bog'liq vaziyatlarga doir vazifalarni bajarish orqali tashkil etiladi. Bunda asosiy e'tibor o'zlashtirilayotgan til materiali jamiyat hayotining turli jabhalaridan olinishiga qaratiladi. Til materiallarini loyiha metodi orqali o'zlashtirish – bu o'qituvchi tomonidan maxsus tayyorlangan va o'quvchilar tomonidan mustaqil bajarilishi ko'zda tutiluvchi murakkab faoliyat hisoblanadi. Loyiyaning asosiy elementi shuki, uni bajarishdan keyin muayyan ijodiy mahsulot yaratiladi. Loyiha metodi ta'lim jarayonini muayyan bosqichlarga bo'lishga asoslanadi. Alohida olingan bosqich umumiy bosqichning bir qismi bo'lib, uni bajarish orqali o'quvchilar aynan shu bosqich oldiga qo'yilgan vazifani bajargan bo'ladilar. Umumiy belgilangan vazifaga alohida-alohida kichik vazifalarni yechish orqali erishiladi. Har bir bosqichdan keyin loyiyaning mazmuni yanada to'lib boradi. Bu narsa o'quvchilarni qiziqishini oshiradi va ularda loyiyaning yakuniy bosqichiga tezroq borish istagi paydo bo'ladi.

Loyiha metodini o'tkazish uchun o'qituvchi oldindan tayyorlanishi shart. Uni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Loyihani tashkil etishdan oldin asosiy shartlar belgilab olinadi.

Loyiha mavzusi tili o'rganilayotgan mamlakat bilan yoki o'quvchining o'z mamlakati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Loyihada ikki mamlakat alohida o'rganilishi yoki ular o'rtasida qiyosiy o'rganishni belgilab olish mumkin.

Loyihaning vazifalari belgilab olingach, o'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga bo'lishni tashkil qiladi. Bunda har bir o'quvchiga muayyan vazifa berilishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilarga u yoki bu vazifani yuklashda ularning til bilish darajasi, qiziqishlarini e'tiborga olish zarur. Loyihaning yakuniy ko'rinishi qanday bo'lishi har bir ishtirokchining belgilangan ishni qay darajada bajarishiga bog'liq. Yakuniy natijaga har bir o'quvchi dahldor bo'lishi ularning mas'uliyatini yanada oshiradi. Bu yerda o'qituvchining asosiy mas'uliyati o'quvchilarga vazifalarni to'g'ri taqsimlashi bilan belgilanadi. Albatta, o'qituvchi har bir vazifani o'quvchilarga batafsil tushuntirishi va uni bajarishga oid ko'rsatmalarni bera olishi kerak. Har qanday loyiha muayyan bosqichlardan iborat bo'lib ular ma'lum bir sxema asosida bajariladi:

Tayyorlov bosqichi (o'qituvchi o'quvchilarga loyiha mavzusini taklif etadi);

Tashkiliy bosqich (bu bosqichda o'quvchilar guruhlariga bo'linadi, guruhning har bir a'zosiga muayyan vazifalar yuklanadi);

Asosiy bosqich (bu bosqichda o'quvchilar loyiha uchun zarur bo'lgan axborotlarni izlash bilan shug'ullanadilar, topilgan har bir axborot guruh a'zolari o'rtasida muhokama qilinadi);

Barcha ma'lumot va axborotlar yig'ilgach ular muayyan shaklga solinadi (taqdimotlar, devoriy gazetalar va boshqa shaklga keltiriladi);

Tayyorlangan yakuniy maxsulotni taqdimotini o'tkazish (Bunda qilingan ishlarning natijasi ko'rsatiladi, o'quvchilar tomonidan guruhda ishlash yoki individual ishlash orqali erishilgan natijalar ko'rsatiladi);

Yakuniy bosqich (bu bosqichda o'qituvchi barcha guruhlarning loyiha ishiga doir xulosasini aytadi. Loyihalarning yutuq va kamchiliklarini tahlil qiladi, yo'l qo'yilgan kamchiliklar aytiladi va kelajakda shunday kamchiliklarni takrorlamaslik uchun nimalarga e'tibor qaratish kerakligini, qanday qilib ishning sifatini oshirish bo'yicha fikrlarini bildiradi).

Shubhasiz, loyiha metodini tashkil etishda o'qituvchining o'rni katta.

Uning vazifasi turli bosqichlarda turlicha bo'ladi. Masalan, tayyorlov bosqichida uning asosiy vazifasi o'quvchilarda loyihani qanday amalga oshirish to'g'risida fikrlar uyg'otish va uning rejasini tuzishga ko'maklashishdan iborat bo'ladi. Mazkur bosqichda tartibga solish va tashkiliy funktsiya asosiy o'rinni egallaydi. Loyihaning keyingi bosqichlari kichik guruhlarda ishlash orqali amalga oshadi. Mazkur bosqichlardagi o'qituvchining funktsiyasi guruhlardagi ishlarni o'zaro muvofiqlashtirish va ularga ko'rsatmalar berish bilan bog'liq bo'ladi. Loyihaning so'nggi bosqichida esa o'qituvchining vazifasi har bir guruhning amalga oshirgan ishlarini tahlil qilish, umumiy xulosa chiqarish va ularga baho berishga qaratiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi loyihalar o'quvchilar uchun qiziq bo'lishi, ularni o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lmog'i lozim. Har bir loyiha o'quvchi uchun yangi axborotlar, yangi bilimlar olish imkoniyatini berishi kerak.

“Chet tillarni egallashning umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash” CEFRda belgilangan tamoyillar asosida yaratilgan deyarli barcha darsliklarda loyiha darslariga alohida ahamiyat berilgan. Masalan, K. Dolez, S. Ponslarning « Alter Ego » darsligini olsak, ushbu uning har bir bobida loyihalarga alohida rukn ajratilgan. Ulardan birini keltirib o'tamiz. Rubrikaning nomi « A vos réalisation » deb nomlanadi. Rukn nomidan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar nimanidir yaratishlari kerak. Loyihalarning birida shunday vazifa qo'yiladi: « Vous allez réaliser une page d'un site d'astuces destiné à aider les étudiant(e)s à consommer mieux et à payer moins cher ». Loyihaning maqsadi talabalar iste'mol qiluvchi narsalarni sifatli va arzon narhlarda harid qilish bo'yicha maslahatlar beruvchi internet manzili sahifasini yaratishdan iborat. Bunda talabalar quyidagilarni bajarishlari lozim bo'ladi. Internet saytiga nom topish, internet sahifasi qanday ruknlardan tashkil topishini aniqlashtirish, guruhlarda har bir ruknda (transport, ijara, sog'liqni saqlash, xordiq chiqarish kabilar) qanday ma'lumotlar qo'yilishini belgilash kabilar. Shundan so'ng talabalar kichik guruhlarda ruknlarni mazmunan to'ldiradilar. Masalan, Témoignages ruknida shunday ma'lumot keltirish mumkin: J'ai entendu dire qu'il y aurait 50% de réduction sur les places de théâtre si vous prenez un abonnement avant le 15 octobre. [4, 39]. Har bir kichik guruh o'z loyihasini taqdim etadi. O'qituvchi barcha talabalar har bir taqdimotni diqqat bilan eshitishini va ularga o'z munosabatini chet tilida bildirishlarini nazorat qilishi lozim. Loyiha so'nggida talabalarga o'z-o'zini baholash bo'yicha quyidagi so'rovnomma beriladi:

Avez-vous :

trouvé un nom facile à retenir pour votre site ?

rédigé plusieurs astuces dans votre rubrique en faisant des comparaisons ?

écrit quelques témoignages en utilisant le discours rapporté ?

utilisé des expressions pour mettre en garde ?

donné quelques adresses internet utiles à tous ?

animé votre page avec quelques dessins, logos ou photos ?

Yuqoridagi savollar orqali talabalar o'zlarining ishini baholay oladi. Eng muhimi loyihada nafaqat talabalarning nutq ko'nikmalari, balki ularning turli manbalardan axborotlarni izlab topish, ularni tahlil qilish, ulardan zarur elementlarni ajratib olish, guruhlarda birga ishlash kabi qator ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi [4, 39].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, chet tili ta'limida loyiha metodi zamonaviy yondashuv bo'lib, u dars jarayonini yanada boyitishga, o'quvchilarni guruhlarda ishlashga, o'zlarini muayyan jamoaning a'zosi ekanligi va shu sabab mas'uliyatli bo'lishga o'rgatishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Dollez C., Pons S. Alter Ego. Méthode de français 3. –Paris : Hachette, 2006.
2. Tolipov U.K, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan, 2005. - 205 b.
3. Бордовская Н.В. Современные образовательные технологии: Учебное пособие - М., 2011,- 432 с.
4. Борисова Е.М. Проект на уроках немецкого языка // Иностранные языки в школе. – 1998. – № 2. – С. 27-31.



UniPublish
CONFERENCE PROCEEDINGS
POST. INDEX. IMPACT.